

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

**INKLYUZIV TA'LIM TEXNOLOGIYASINING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI**

**Avezov Olmos Ravshanovich**

Osiyo Xalqaro Universiteti dotsenti (PhD)

**Kurbanova Malika Kulmuhammad qizi**

Osiyo xalqaro universiteti II bosqich magistri

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inklyuziv ta'lismi texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari nazariy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lismi, rivojlantirish, yo'naltirish, texnologiya, ishlab chiqish, takomillashtirish, metodik tavsiya, xalq ta'limi, labaratoriya.

**Mavzuning dolzarbliji.** Jahonda nogironligi bor, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan bolalarni tarbiyalash, jamiyatda munosib o'rnini topishga yordam berish mutaxassis olimlar tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda. Masalan, Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan "Nogironlar huquqlari to'g'risida Konvensiya" qabul qilingan. SHuningdek, Dakar deklaratsiyasi asosida qabul qilingan "Ta'lism hamma uchun" reja-dasturiga muvofiq umumiy ta'lismi tizimiga inklyuziv o'qitish texnologiyasini joriy etish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu, o'z navbatida, jamiyat oldiga umumiy o'qitish tizimi bilan inklyuziv ta'lismi integratsiyalash, uning o'quv-tarbiyaviy, pedagogik-psixologik jihatlarini optimallashtirish talablarini qo'yadi.

O'zbekistonda ham ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning jamiyatga moslashuvi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilyapti. Inklyuziv ta'lismi rivojlantirish o'qitishning barcha bo'g'lnlari – muktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy va maktabdan tashqari ta'lismi tizimida amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta'linda alohida e'tiborga muhtoj bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayoni o'quvchilarning ayrim xususiyatlarini e'tiborga olgan holda umumiy o'rta ta'limga davlat standartlariga muvofiq belgilanmoqda. Alohida e'tiborga muhtoj bolalarni ilk yoshidan tashxis qilish, ularning salomatligini mustahkamlash, maxsus ta'limga uchun zamon talablariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Maxsus muktab-internatlar, mehribonlik uylari, ixtisoslashtirilgan markazlar faoliyati davr talablari asosida faoliyat olib bormoqda. Ularning o'quv-tarbiyaviy ishlarini yanada takomillashtirish, moddiy texnik bazasini mustahkamlash va nogiron bolalarga bilim berishda ilg'or pedagogik texnologiyalar izchillik bilan joriy etilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha

# FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMUY ONLAYN KONFERENSIYA

Harakatlar strategiyasida: “...imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, nogiron aholining, boshqa ehtiyojmand toifalarning to'laqonli hayot faoliyatini ta'minlash uchun ularga tibbiy, ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish” kabi vazifalar belgilab berilgan. SHu ma'noda, bugungi kunda inklyuziv ta'limni pedagogik-psixologik jihatlarini takomillashtirish dolzARB ahamiyat kasb etmoqda.

**Muammoning o'rGANILGANLIK DARAJASI.** Ta'lim muassasalarida alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish, oilada nogironligi bo'lgan farzandni tarbiyalashning pedagogik-psixologik xususiyatlari, ularning nuqsonlarini korreksiyalash, shuningdek, nutqiy kamchiligin o'rGANISH va bartaraf etish muammolari, kasb-hunarga yo'naltirish masalalari quyidagi olimlar: R. X.Jo'raev, SH.E.Qurbanov, M.F.Hakimova, G'.B.SHoumarov, L.R.Mo'minova, H.M.Po'latova, L.SH.Nurmuhamedova va R.SHomahmudovalar tomonidan o'rGANILGAN.

MDHga a'zo mamlakatlarning olimlari tomonidan nogironligi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi mavqeい, ularning aqliy, pedagogik va psixologik hususiyatlari, mavjud nuqsonlarni korreksiyalash va inklyuziv ta'lim muammolari I.V.Skrebeva, I.I. Mamaychuk, L.P. Koskovoy, O.S. Nikolskaya, V.S. Manova-Tomova, YU.S. Alyoshina, L.M. Krijanovskaya, V.S. Muxina, A.A. Bodalyov, E.R. Baevskayalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyatimiz oldiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lgan ta'lim tizimini yangilash va yosh avlodni zamon talablariga javob bera oladigan barkamol inson etib tarbiyalash, ular ongiga mustaqillik g'oyalarini singdirishdek muhim vazifalarni qo'yemoqda. Hozirgi kunda mamlakatda nogironlikning oldini olish va nogironligi bo'lgan shaxslarning yashash, o'qish, mehnat qilish va dam olishlari uchun qonuniy asos yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 avgustdag'i F-5006-son Farmoyishi bilan tashkil etilgan nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan. takliflarni tayyorlash bo'yicha komissiya tomonidan nogironlikni barvaqt aniqlash va oldini olish, nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularni kasbga o'qitish va ishga joylashtirish sohasidagi ishlarning ahvoli hamda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi 2017 yil 1 dekabrdagi farmonida tasdiqlangan.

Inklyuziv ta'lim faoliyati dasturi maxsus ehtiyojlar ta'limi butunjahon konferensiyasida qabul qilindi. Ispaniya davlatining Salamanka shahrida 1994

# FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMUY ONLAYN KONFERENSIYA

yilda 7-10 iyunda 92 davlat va 25 ta xalqaro tashkilot vakillari ishtirokida bo'lib o'tgan umumjahon konferensiyasi delegatlari maxsus ta'limga muhtoj bo'lgan bolalar, yoshlar va yoshi kattalarga oddiy ta'limga tizimi doirasida ta'limga berish zarur va kerak ekanligini tan olgan holda, barcha uchun maxsus ta'limga tamoyillari, islohotlari bo'yicha "Salamanka bayonoti" qabul qilingan. Unda hammaga: "Biz barcha davlatlarni chorlaymiz va murojaat qilamiz: inklyuziv ta'limga tamoyilini qonun yoki islohot deb qabul qiling..." deb da'vat qilingan va quyidagi alohida majburiyatlar ishlab chiqilgan:

- har bir bolaning ta'limga olishi uchun asosli huquqga ega ehtiyojiga mos ravishda ta'limga olish, bilim darajasini saqlab qolish imkoniyati bo'lishi;
- har bir bola (jumladan, nogironligi bo'lgan bola ham, takrorlanmas hislatlar, qiziqishlar va bilim olish imkoniyatlariga ega ekanligi;
- ta'limga barcha bolalar imkoniyatiga mos, egiluvchan tarzda ishlanishi, dasturlar esa har bir bolaning ehtiyoji va imkoniyati darajasida bo'lishi;
- ta'limga alohida ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun umumta'limga maktablarida ta'limga olish imkoniyati bo'lishi va bu maktablarda maxsus: bolalar imkoniyatlari, ehtiyojlariga yo'naltirilgan pedagogika qo'llanilishi zarurligi ta'kidlangan<sup>1</sup>.

**Inklyuziv ta'limga tushunchasi** turlicha talqin qilinadi. Uzlucksiz ta'limga tizimi uchun esa quyidagi talqin ko'proq to'g'ri keladi. Inklyuziv ta'limga inglizcha so'zdan olingan bo'lib, inclusive, ibclusion - uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirilgan, o'ziga tortuvchi, qamrab oluvchi ma'nolarini, lotinchada esa includ - qamrab olaman, jalb qilmoq ya'ni nogironligi bo'lgan va oddiy bolalar o'rtaqidagi to'siqlarni bartaraf etishdir. Inklyuziv ta'limga davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardan biridir. Darhaqiqat, alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan, voyaga etayotgan o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan o'quv jarayoniga jalb qilishni ifodalovchi ta'limga tizimidir.

<sup>1</sup> Абасов З.А. Проектирование и организатсия групповой работы учащихся на уроке. // Наука и школа. – 2009. – №6. – С. 36-37.

Акромова Х.С. Алоҳида эътибор талаб этувчи болаларни педагогик-психологик текшириш усуллари. Мактаб ва хаёт. – 2017. – №3. – Б. 17-19.

Бедаш Н.Н. Развитие и воспитание детей – социальной заказ общества. // Вестник НГУ. Серия: Педагогика. – 2009. Том 10. Выпуск 1. – С. 110-113.

# FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMUY ONLAYN KONFERENSIYA

**Inklyuziv ta'limning maqsadi** alohida yordamga muhtoj bolalarning oddiy tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o'qishi, ular bilan o'zaro do'stona munosabatda bo'lishi hamda jamiyatga ijtimoiy moslashuvini engillashtirish, o'quvchilarnig ta'lim olishlari uchun zaruriy pedagogik-psixologik va korreksion sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Inklyuziv ta'lim jarayoni o'ziga xos murakkabliklariga ega bo'lib, shu sohada ishlaydigan mutasaddilar, o'qituvchilar zimmasiga jiddiy talablar qo'yadi. Bunday ta'limda sinf rahbari, fan o'qituvchilari, tarbiyachilar, kasbiy mahorat ustalari yordam ko'rsatish borasidagi xizmatlari orqali asosiy vazifani bajaradi. Ayniqsa, oddiy bolalar bilan nogironligi bo'lgan, alohida ehtiyojga muhtoj bolalar orasida tafovut sezilganda, ya'ni nogironligi bo'lgan bolaning o'z tengdoshlariga qo'shilmay, tortinchoq, o'zidagi imkoniyatlaridan foydalana olmasligi sababli uyalgan yoki injiq bo'lib qolishgan bo'ladi.

**Inklyuziv ta'lim** – nogironligi bo'lgan yoki boshqa sabablar tufayli alohida e'tiborga muhtoj bolalar, tarbiyasi og'ir, etim bolalar uchun moslashuvchan, individuallashgan va barcha bolalarga teng xuquq va imkoniyatlardan tengligini beradigan ta'lim tizimidir. SHuningdek, inklyuziv ta'lim millati, irqi, tanasining rangi, ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy va ma'naviy ahvoli, oilasining jamiyatda tutgan o'mni, jismoniy yoki rivojlanishda kamchiligi bo'lishidan qat'iy nazar barcha bolalarni teng ko'rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadigan ta'lim hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim tashkil etilgan maktablar bolalarning bilim olishi uchun yuqorida aytib o'tilgandek, shaxsiy huquqlarini himoyalaydi. O'quvchilari turlicha bo'lgan, ularning barchalariga har birlari uchun o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda teng sharoit yaratilgan muktab **inklyuziv muktab** deb nomlanadi.

Inklyuziv ta'lim tizimi quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- Oila, mahalla hamda ta'lim muassasalari o'rtasida integratsion ishlarni yanada rivojlantirish;
- Sog'lom turmush tarziga amal qilgan holda aqliy va jismoniy etuk, barkamol avlodni tarbiyalash;
- Umumiy ta'lim va maxsus ta'lim o'rtasidagi to'siqlarni kamaytirish;
- CHEkka hududlardagi ta'limga jalb qilinmagan nogiron bolalar uchun pedagogik korreksion ishlarni takomillashtirish
- Nogiron bolalarni ta'limdan keyingi hayotida jamiyatga ijtimoiylashuvini integratsiyalash;
- Nogiron bolalarni tashxislashda zamonaviy innovatsion metodlar va vositalardan foydalanishdan iborat.

## **FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMUY ONLAYN KONFERENSIYA**

Inklyuziv ta'lismi oddiy sinflarda va o'quvchilarga yaqin bo'lgan oddiy maktablarda olib boriladi. Oddiy sinf muhitidan ajratish, oddiy sinflarda ta'lismi olishda qo'shimcha yordam va xizmatlar olib borilayotgan ta'lismi, ijtimoiy va ichki ehtiyojlarni o'quvchilar talabiga javob bermayotganligi to'g'risida dalillar mavjud bo'lsa, qisman yoki mustasno hollarda, to'la amalga oshirilishi mumkin.

Inklyuziv ta'lismi maktabgacha ta'lismi muassasalaridan boshlab yo'lga qo'yilayotganligi muhim ahamiyatga ega. Bu bolaning keyinchalik atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishiga, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan va shu bilan birga, kundalik-maishiy ehtiyojini qondirish ko'nikmalarini erta egallashlariga, hayotga moslashib, umumta'lismi maktablarida tengdoshlari qatori darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishiga, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmasini egallashlariga ko'maklashadi. Biroq inklyuziv ta'lismi nafaqat nogiron bolalar o'rtasida, balki sog'lom turmush tarzi mavjud bo'lgan oiladagi bolalar o'rtasida, maktabgacha ta'lismi muassasalarida, maktablarda, kasb-hunar kollejlarida, fanlarni o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lgan o'quvchilar orasida ham joriy etish mumkin. Masalan, bitta sinfda a'llo baholarga o'qiydigan, iqtidorli bolalarga fanlardan o'zlashtirishi past bo'lgan bolalarni birikitib qo'yish, bir partada yonma-yon o'tirg'izib, uning iqtidorini, yutuqlarini jalb qilgan holda o'quvchining o'zlashtirish samaradorligini oshirish mumkin. YA'ni yaxshi o'qiydigan bolaning yoniga o'zlashtirishi sust bolani qo'yib, o'zlashtirish ko'rsatkichini yaxhilasa bo'ladi. Namunali o'qiydigan o'quvchi qoloq o'quvchini o'zining ijobiy ta'sir doirasiga kiritishi, yaxshi xususiyatlari bilan uni o'ziga jalb eta olishi mumkin. Kasb-hunar kollejlarida ham fanlar bilan bir qatorda kasbiy mahorati yaxshi bo'lgan iqtidorli o'quvchidan foydalaniib, kasbni egallashi yoki kasbiy o'zlashtirishi sustroq o'quvchining kasbiy mahoratini oshirish, samaradorligini ko'tarish mumkin.

Ta'lismi muassasalarida kelib chiqishi jihatidan umumiyligi va parallel bo'lgan hozirgi maktab tizimida maxsus maktablarga yo'naltirish hamda ta'lismi integratsiyasida rivojlanib borayotgan inklyuziv maktablarga aylanib bormoqda. Rivojlanib borayotgan tizim uchun inklyuziv maktablar qo'shimcha tanlanishi kerak bo'lgan imkoniyat emas, balki majburiydir. Buning natijasida oddiy sinf xonasi alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar ta'limi uchun birinchi imkoniyatga aylanadi. Og'ir va murakkab qiyinchiliklari bor bo'lgan bolalarga ba'zi hollarda boshqa turdag'i markazlar yoki oddiy maktab ichida maxsus bo'lim kabi dasturlar qo'llanishi mumkin. Sinf xonasi ehtiyojni qondira olmagunga qadar bu qo'shimcha imkoniyatdan foydalanish tavsiya etilmaydi.

# **FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

Yuqorida tilga olingan strategiyaning sog'liqni saqlash xizmati bilan o'xshashlik tomonlar bor. Kasallarning ko'pchiligiga ularning uylarida yoki yaqin oradagi klinikalarda xizmat ko'rsatiladi. Ba'zilariga shifoxonadan joy beriladi. Ularning juda oz qismi maxsus tibbiy yordam bo'limida davolanadi. Odatda, biz qo'limiz kesilsa shifokorga murojaat qilmaymiz. SHunga o'xshash, ko'pgina maxsus ta'limga muhtoj bolalarning ehtiyojlarini oddiy maktabning o'zida ham qondirsa bo'ladi. Berilayotgan ta'lim, albatta, bolaning haqiqiy ehtiyojlariga mos kelishi kerak. SHu yo'l orqali mutaxassis xizmatlari zarur holatlar uchun saqlab qo'yiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. The edication of children end young health with Disabilities Parish. Principles fun the review of practiced. – Unesco, 1992.
2. Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya. UNISEF. T., 2009. – 40 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi// Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent: 2007.
4. Брюно Ж. и др. Одаренные дети: психоло-педагогические исследования и практика// Психологический журнал. – 1995. -№4. – С.73-75.
5. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. Монография. – М.: ИНТОР. 1996. – 544 с.
6. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat Darslik,"KAMOLOT" nashriyoti, 2023 yil. 332 bet.
7. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti. PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 5-sod (2021-yil, oktabr). Buxoro, 2021 y. B. 145-150.
8. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda shaxsning stressli holati va xulq-atvor reaksiyalari. Psixologiya. № 4 son(2020) Buxoro. 2020. B. 94-98.
9. Avezov O.R. Psyshologisal relations between family members. Sscientifis Journal Impast Fastor. VOLUME 2 | ISSUE 2. ISSN 2181-1784. SJIF 2022: 5.947 February 2022 [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz). P-945-949
10. Avezov O.R. Mental Status and Behavioral Reastions in Emergensi and Extreme Emergencies AMERISAN JOURNAL OF SOSIAL AND HUMANITARIAN RESEARSH. ISSN: 2690-9626 Vol.3, No 1, 2022. <https://www.grnjournals.us/index.php/AJSHR/article/view/714>

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

11. Avezov O.R. Ta'lism- tarbiya jarayonida agressiv xulqli bolalar ota-onasi bilan ishlashning o'ziga xos psixologik jihatlari. "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish sharoitida shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishning falsafiy omillari" //Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari// Farg'ona, 2017 y. B. 248-251.
12. Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish. Darslik,"Durdona" nashriyoti, 2021 yil. 243 bet.
13. Avezov O.R. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. Darslik, " Buxoro viloyati bosmaxonasi" nashriyoti, 2019 yil. 495 bet.
14. Avezov O.R., SH.R. Barotov, L.YA. Olimov. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. "O'zbekiston faylasuflari jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019 yil. 492 bet.
15. Avezov O.R. L.YA. Olimov, A.M. Nazarov. Shaxs psixologiyasi. Darslik. "Durdona" nashriyoti Buxoro. 2019 yil. 340 bet.
16. Avezov O.R., To'ymurodov A.SH. Ekstremal vaziyatlarda shaxsga psixologik ta'sir etishning o'ziga xos xususiyatlari. Ssiense And Education Scientific Journal Issn 2181-0842 Volume 3, Issue 4 April 2022. [www.opensciense.uz](http://www.opensciense.uz) P.717-725
17. Avezov O.R. Masofaviy ta'linda o'quv faoliyatini tashkil qilishda ekstremal vaziyatlarning psixologik tahlili. "Masofaviy ta'limi tashkil etishning pedagogik-psixologik jihatlari". //Xalqoro ilmiy-amaliy anjumani materiallari// Toshkent, 2021 y. B. 501 - 504.
18. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti. Psixologiya. № 1 son (2021) Buxoro. 2021. B. 21-27.
19. Avezov O.R., L.Ya. Olimov. Sosial Psyshologisal Sharasteristiss Of Psyshologisal Defenses Manifested In Adolessents In Extreme Situations. International journal of ssientifis & teshnology research volume 9, issue02, February 2020 p. 2784-2786